

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.K.05.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

SARABEKOV ASADBEK TAJIKULOVICH

***HELICHRYSUM MARACANDICUM, HELICHRYSUM NURATAVICUM VA
HELICHRYSUM MUSSAE O‘SIMLIKLARINING KIMYOVIY TADQIQI***

02.00.10 - Bioorganik kimyo

**KIMYO FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferatining mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)

Sarabekov Asadbek Tajikulovich

Helichrysum maracandicum, *Helichrysum nuratavicum* va *Helichrysum mussae* o‘simliklarining kimyoviy tadqiqi 3

Сарабеков Асадбек Тажикулович

Химическое исследование растений *Helichrysum maracandicum*, *Helichrysum nuratavicum* и *Helichrysum mussae* 21

Sarabekov Asadbek Tajikulovich

Chemical study of *Helichrysum maracandicum*, *Helichrysum nuratavicum* and *Helichrysum mussae* plants 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 43

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.K.05.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

SARABEKOV ASADBEK TAJIKULOVICH

***HELICHRYSUM MARACANDICUM, HELICHRYSUM NURATAVICUM VA
HELICHRYSUM MUSSAE O‘SIMLIKLARINING KIMYOVIY TADQIQI***

02.00.10 - Bioorganik kimyo

**KIMYO FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/K400 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (fdu.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Maulyanov Salixjan Alimjanovich
kimyo fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponenrlar:

Aripova Salimaxon
kimyo fanlari doktori, professor

Siddikov G'opurjon Usmonovich
kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Bioorganik kimyo instituti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.K.05.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «06» iyul soat 10⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil:150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19. Tel: (99873) 244 44 02, faks (99873) 244-44-93).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (350 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi., 19. Tel.:244 44 02, faks (99873) 244-44-93; e-mail: fardu_info@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «22» iyun kuni tarqatildi.

(2024 yil «___» _____ daqi _____ raqamli reestr bayonnomasi).



V.U. Xo'jayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, k.f.d., professor

Sh.Sh. Turg'unboyev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sh.V. Abdullayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, k.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda yangi biologik faol moddalarga ega bo'lgan o'simlik xomashyolarini o'rganishga oid tadqiqotlarga katta e'tibor qaratilmoqda. Tabiiy xomashyolardan ajratib olinadigan biologik faol birikmalar asosida yaratilgan dorivor vositalar xossalari, tanlab ta'sir etuvchanligi va ekologik tozaligi bilan sintetik dori vositalarga nisbatan samarali ta'sirga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Tabiiy terpenoidlar va fenol birikmalari asosida dori vositalarini yaratish va amaliyotga joriy etish muhim hisoblanadi. Bu, birinchi navbatda, ayrim dori vositalarini olishda dorivor o'simliklar asosiy manbaa ekanligi va farmatsevtika sanoatida muhim o'rin egallashi bilan bog'liq. Shuning uchun, o'zida biologik faol birikmalar (asosan terpenoidlar va fenol birikmalari) saqlovchi o'simlik xomashyolarini kimyoviy jihatdan tadqiq etish hamda ular asosida tibbiyot amaliyotiga, veterinariya va qishloq xo'jaligi sohalari uchun dori vositalarini yaratish alohida ahamiyat kasb etadi.

Jahonda biologik faol birikmalarni biosintez qiluvchi *Asteraceae* oilasi o'simliklaridan terpenoidlar va fenol birikmalarni ajratib olish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, o'simlik flavonoidlari safro haydovchi, xolekinetik, xoleretik, yallig'lanishga qarshi, bakteriyalarga qarshi, spazmolitik, yaralarni davolovchi va antioksidant ta'sirlarga ega bo'lib, ular asosida yaratilgan dori vositalari tibbiyot amaliyotida turli kasalliklarni davolashda qo'llanilib kelinmoqda. Bu borada, *Helichrysum arenarium* gullaridan olingan flavonoidlar yig'indisi asosida safro haydovchi «Flamin» dori vositasi yaratish, tarkibida biologik faol terpenoid va fenol birikmalar saqlagan o'simliklardan individual biologik faol birikmalarni ajratib olish, ularning kimyoviy tuzilishini va biologik faolliklarini aniqlash hamda ular asosida turli dori vositalari yaratishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda mahalliy dorivor o'simliklar asosida import o'rnini bosuvchi va eksportga yo'naltirilgan dori vositalarini yaratish, aholini sifatli dori-darmon bilan ta'minlash bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21-yanvardagi «2022-2026 yillarda Respublikaning farmatsevtika tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»¹ gi PF-55-sonli farmoniga asosan biologik faol birikmalarni olish usullarini takomillashtirish «dori vositalari, tibbiy buyumlari va tibbiyot texnikalarini ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni yanada tatbiq etish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlanmalarini tashkil etish hamda takliflar kiritish va ishlab chiqarishni mahalliyashtirish»ga yo'naltirilgan vazifalar belgilab berilgan. Bu borada O'zbekiston hududida keng tarqalgan *Helichrysum maracandicum*, *Helichrysum nuratavicum* va *Helichrysum mussae* o'simliklardan biologik faol birikmalarni ajratib olish va ular asosida import o'rnini bosuvchi dori vositalarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-yanvardagi «2022-2026 yillarda Respublikaning farmatsevtika tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» № PF-55 sonli farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14-fevraldagi PQ-3532 sonli «Farmatsevtika tarmog‘ini jadal rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi, hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10-apreldagi PQ-4670 sonli «Yovvoyi holda o‘sovchi dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya ishi Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining VI. «Tibbiyot va farmakologiya» hamda VII. «Kimyo texnologiyalari va nanotexnologiyalari» ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq olib borilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. *Helichrysum Mill.* turkum o‘simliklarining fitokimyoviy tadqiqotlari F.Bohlmann, W.R.Abraham, W.S.Sheldrick, C.Zdenot, C.Zdero, E.Hoffmann, P.K.Mahanta, D.A.Viegas, A.P.De-Oliveira, L.Salgueiro, J.M.De-Oliveira, R.P.De-Oliveira, L.N.Misra, J.L.Rios, M.C.Recio, E.M.Cybulski va boshqalar, MDH davlatlari olimlari - A.V.Kurkin, V.M.Rijov, O.M.Shevchuk, S.P.Lukashuk, S.A.Feskov, S.L.Adjaxmetova, N.M.Chervonnaya, I.A.Fedotova, A.S.Baymuxametova, L.T.Suxenko, A.V.Velikorodov, M.A.Egorov, A.M.Almagambetov, B.S.Temirgaziev, I.V.Zavarzin, V.V.Kachala, P.K.Kudabaeva, B.I.Tulenov, S.M.Adekenov, YU.S.Taraxovskiy, B.S.Abdrasilov, E.N.Muzafarov, N.Yu.Adamsevich, E.V.Feskova, V.S.Boltovskiy kabi dunyoning etakchi olimlari tomonidan olib borilgan.

O‘zbekistonda mazkur turkum o‘simliklari metabolitlarining tadqiqotlari bilan R.F.Muxamatxanova, N.D.Abdullaev, I.D.Shamyaynov, V.I.Vinogradova, X.M.Bobakulov, G.A.Toshtemirova, S.I.Rustamova, F.M.Tursunxodjaeva, Sh.Sh. Sagdullaev va boshqalar shugullanishgan. Yuqorida sanab o‘tilgan olimlar O‘zbekiston Respublikasi hududida tarqalgan o‘simliklarning terpenoid va fenol birikmalarini ajratib olish, ularning tuzilishini aniqlash va biologik faolligini tadqiq etish bo‘yicha ilmiy izlanishlarni olib borishgan. Ushbu tadqiqotlar natijasida tibbiyot sohasida qo‘llaniladigan samarali dori vositalari yaratilgan.

Fitokimyoviy tadqiq etilayotgan o‘simliklarning turlari o‘z tarkibida biologik faol terpenoidlar va fenol birikmalarini ko‘p miqdorda saqlaganligi sababli mazkur yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarini dolzarbligidan dalolat beradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbekistonda o‘sadigan dorivor o‘simliklarni kimyoviy tadqiq qilish, biologik faol moddalarni ajratib olish, tuzilishini tadqiq qilish, modifikatsiyalash, ta‘sir

mexanizmini o'rganish, hamda tibbiyot va qishloq xo'jaligi uchun samarador dori vositalar yaratish" mavzusidagi ilmiy yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston florasida o'suvchi *Helichrysum maracandicum*, *Helichrysum nuratavicum* hamda *Helichrysum mussae* o'simliklari kimyoviy tarkibini va olingan birikmalarning biologik faolliklarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Helichrysum maracandicum, *Helichrysum nuratavicum* va *Helichrysum mussae* o'simliklari yer ustki qismlarining terpenoid va fenol birikmalari hamda mineral tarkibini kimyoviy tadqiq etish, o'z navbatida ularni ekstraksiya qilish va olingan ekstraktlarni turli qutblikdagi organik erituvchilardan (ekstraktsion benzin, xloroform, etilatsetat, etil spirti va *n*-butanol) foydalangan holda kolonkali xromatografiya yordamida fraktsiyalash hamda birikmalarni individual holda ajratish;

individual birikmalarning kimyoviy tuzilishini aniqlash;

Mannix reaksiyasi (aminometillash) usulida kversetin bilan sitizinning yangi hosilasini olish;

tadqiq etilayotgan obyektlar - gul va barglarining qutbsiz uchuvchan birikmalarini tadqiq etish;

H.maracandicum o'simligi gullari flavonoidlarini ekstraksiya qilishning yangi maqbul usulini ishlab chiqish;

ajratib olingan terpenoidlar va fenol birikmalari, shuningdek efir moylarining biologik faolliklarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston hududida o'suvchi *Helichrysum maracandicum* Popov ex Kirp, *Helichrysum nuratavicum* Krasch va *Helichrysum mussae* Nevski o'simliklari, ulardan ajratib olingan ekstraktiv birikmalar tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti *Helichrysum maracandicum*, *Helichrysum nuratavicum* va *Helichrysum mussae* o'simliklaridan terpenoid va fenol birikmalarni ajratib olish, individual birikmalarga ajratish, ularning tuzilishi va biologik faolligini tadqiq etish hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishini bajarishda ajratish va tozalashning ma'lum bo'lgan usullaridan foydalanilgan: ekstraksiya, haydash, ustunli (KX) va yupqa qatlamli xromatografiya (YUQX), qayta kristallash; ajratilgan birikmalarning tuzilishini aniqlashning fizikaviy usullari: UB, IQ, YaMR spektroskopiya (¹H, ¹³C, HSQC va HMBC), mass-spektrometriya (MS), gaz-xromato-mass-spektrometriya (GX-MS), shuningdek biologik usullar qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor Respublikamiz florasida o'suvchi *Helichrysum maracandicum* o'simligidan jami 18 ta, jumladan, 2 ta fenolkarbon kislota, 4 ta triterpenoid, 11 ta flavonoid birikmalari va 1 ta siklik polioliol individual holda ajratib olingan, shulardan 17 tasi o'rganilayotgan o'simlikda birinchi marotaba aniqlangan;

o'simliklarning gullari va barglaridan gidrodistillash usulida 150 dan ortiq (*Helichrysum maracandicum* gulida - 52 ta, bargida - 57 ta; *Helichrysum*

nuratavicum gulida - 45 ta, bargida - 79 ta; *Helichrysum mussae* gulida - 77 ta, bargida - 95 ta) uchuvchan uglevodorodlar, mono- va seskviterpenoidlar mavjudligi aniqlangan;

Helichrysum mussae o'simligi gul va barglarining geksanli ekstraktlaridan gidrodistillash usulida 56 ta (gulida - 31 ta, bargida - 25 ta) uchuvchan uglevodorodlar, mono- va seskviterpenoidlar mavjudligi aniqlangan;

Helichrysum maracandicum va *Helichrysum mussae* o'simliklarining makro va mikro element tarkibi sifat va miqdoriy jihatdan tekshirilib, o'simliklar tarkibidagi zaharli og'ir metall ionlari miqdori O'zbekiston Respublikasi oziq-ovqat mahsuloti xavfsizligi gigienik normativlaridagi ruxsat etilgan darajadan past ekanligi isbotlangan;

ilk bor ajratib olingan biologik faol flavonoid - kversetinning sitizin bilan Mannix usuli bo'yicha yangi hosilasi sintez qilingan;

Helichrysum maracandicum o'simligi etilatsetatli flavonoidlar fraktsiyasining gepatoprotektorlik faolligi Silimarin dori vositasiga nisbatan taqqoslanganda Silimarin darajasida ekanligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Helichrysum maracandicum o'simligidan flavonoidlarni ajratib olishning samarali usuli ishlab chiqilgan;

Respublikamiz hududida o'suvchi *Helichrysum maracandicum* o'simligining yer ustki qismlari safro haydovchi ta'sirga ega flavonoidlarning boy tabiiy manbasi sifatida ishlatilishi mumkinligi isbotlangan;

Respublikamiz hududida o'suvchi *Helichrysum maracandicum* o'simligi gullarining etilatsetatli ekstrakti gepatoprotektor ta'sirga flavonoidlarning boy tabiiy manbasi sifatida ishlatilishi mumkinligi aniqlangan;

Helichrysum maracandicum, *Helichrysum nuratavicum* va *Helichrysum mussae* o'simliklari terpenoid va fenol birikmalarining kimyoviy tadqiqot natijalaridan *Helichrysum L.* turkumi o'simliklarining xemosistematikasini aniqlashda qo'llash mumkinligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil usullari - UB, IQ, YaMR spektroskopiya, GX-MS, xromatografik va biologik usullardan foydalanilganligi, shuningdek olingan natijalar xalqaro va Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilinganligi hamda taqriz qilinuvchi xorijiy ilmiy nashrlarda chop etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati *Helichrysum maracandicum* o'simligidan terpenoidlar va fenol birikmalarining ajratib olinganligi (fenolkarbon kislotalari, aglikon va glikozid holdagi flavonoidlar, xalkonlar) va ularning kimyoviy tuzilishining isbotlanganligi, Mannix reaksiyasi bo'yicha kversetinning sitizin alkaloidi bilan yangi hosilasi olinganligi bilan asoslanadi, bu esa tabiiy birikmalar kimyosining tegishli bo'limlarini yuqorida keltirib o'tilgan o'simlik turining kimyoviy tarkibi haqidagi yangi ma'lumotlarda boyitish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, *Helichrysum maracandicum* o'simligi gullarining flavonoidlar yig'indisi Flamin va Apigenin dori vositalarining yangi manbai va qo'shimcha xomashyo bazasi ekanligi ko'rsatilgan. *Helichrysum maracandicum* gullaridan individual va yig'indi holda ajratib olingan birikmalarning yangi biologik faolliklari aniqlash hamda farmatsevtika sanoatida kimyoviy tahlillar va dori vositalari substansiyalarini ishlab chiqarishda qo'llashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. *Helichrysum maracandicum*, *Helichrysum nuratavicum* va *Helichrysum mussae* o'simliklarining kimyoviy tadqiqotlari bo'yicha olingan natijalar asosida quyidagilar joriy qilingan:

Helichrysum maracandicum o'simligi suvli, etilatsetatli va butanolli ekstraktlari asosida olingan yuqori antioksidantlik xossasiga ega bo'lgan substansiyalarning gepatoprotektor faolligi natijalaridan №A-FA-2019-35 «Mahalliy xomashyo asosida olingan yangi immunotrop dori vositalarini yaratish» (2019-2022 y) amaliy tadqiqot loyihasida substansiyalar gepatoprotektorlik faolliklarini solishtirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2022 yil 14 dekabrda 4/1255-3153-son ma'lumotnomasi). Natijada, *Helichrysum L.* turkumiga mansub o'simliklarning terpenoidlari va flavonoidlarining tuzilishi hamda biologik faolliklarini tadqiq etish asosida antioksidant va gepatoprotektor ta'sirga ega dori vositalarini yaratish imkonini bergan;

H.maracandicum o'simligining yer ustki qismidan ajratib olingan va identifikatsiya qilingan birikmalarning kimyoviy tuzilishi haqidagi spektral ma'lumotlardan xorijiy ilmiy nashrlarda terpenoidlar va flavonoidlarning tuzilishini aniqlashda qo'llanilgan (Journal of natural fibers 2024, V. 21, No. 1, 1-15, WoS, IF 3.5; Chemistry of Natural Compounds, 2023, V. 59, 957-958, WoS, IF 0.8; Chemistry of Natural Compounds, 2023, V. 59, 941-943, WoS, IF 0.8). Natijada, o'simliklardan ajratib olingan birikmalarning tuzilishini aniqlash imkonini bergan;

Helichrysum maracandicum o'simligining yer ustki qismi kimyoviy tarkibini aniqlash bo'yicha olingan tadqiqot natijalaridan «Технологии выращивания и извлечения биологически активных соединений северных ягодных культур и лекарственных трав (ЮграБиоФарм)» (Rossiya Federatsiyasi Surgut Davlat universiteti) mavzusida bajarilgan amaliy tadqiqot loyihasida mintaqa dorivor o'simliklari tarkibining tuproq-iqlim sharoitlarga bog'liqligi, flavonoidlarning biologik ta'sir mexanizmlarini tahlil qilishda foydalanilgan (Rossiya Federatsiyasi Surgut Davlat universitetining 2024 yil 16 apreldagi 03-01/45 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada, Rossiya Federatsiyasining shimoliy regionlaridan keltirilgan dorivor o'simliklarni sifat va miqdoriy jihatdan o'rganish imkonini bergan;

Respublikamizning 5 ta hududida tarqalgan *Helichrysum maracandicum* o'simligi gullari makro-mikro element tarkibining sifat va miqdoriy jihatdan qiyosiy o'rganish natijalaridan xorijiy ilmiy nashrlarda mazkur turkum o'simliklari element tarkibi tahlili uchun foydalanilgan (Saudi Journal of

Biological Sciences, 2021, V. 29, 5268-5274, WoS, IF 4.219; Sustainability, 2021, V. 13, 9437, WoS, IF 3.251; Horticulturae, 2022; V. 8. 1–8, WoS, IF 2.331). Natijada, o‘simlik element tarkibini aniqlash hamda tahlil qilish uslubini yaratish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ilmiy tadqiqoti natijalari 16 ta ilmiy-amaliy konferentsiya va simpoziumlarda, jumladan, 6 ta xalqaro, 10 ta Respublika miqyosida o‘tkazilgan anjumanlarda ma’ruza qilingan va muhokamalardan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 22 ta ilmiy ishlar nashr etilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK ning falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, jumladan 2 tasi xorijiy va 4 tasi Respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati va ilovadan iborat. Dissertatsiya hajmi 111 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan fitokimyoviy tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustivor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga tadbiiq etish, chop etilgan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Dissertatsiyaning **birinchi bobida** *Helichrysum* L. turkum o‘simiklarining terpenoidlari va fenol birikmalarini tadqiq etilgan adabiyot ma’lumotlari umumlashtirilib, mazkur avlod o‘simliklari tibbiyot amaliyotida foydalanish uchun tabiiy birikmalarning istiqbolli sinflari fenol birikmalari hamda terpenoidlarning boy manbalari ekanligi ko‘rsatilgan. *Helichrysum* L. turkum o‘simliklari asosan fenol birikmalar, jumladan pironlar, benzofuranlar va fenol karbon kislotalari, terpenoidlardan esa mono- hamda seskviterpen qator birikmalarni biosintez qilishligi ko‘rsatib o‘tilgan. Ushbu turning jahon florasidagi flavonoidlarini o‘rganish darajasi va kimyoviy xilma-xilligi bo‘yicha adabiyotlar tahlili ham keltirib o‘tilgan. Bu ma’lumotlardan *Helichrysum* MILL. turkum o‘simliklarining xemosistematikasi muammolarini hal qilish uchun foydalanilishi mumkin.

Dissertatsiyaning «*Helichrysum* L. turkum o‘simliklarining terpenoidlari, fenol birikmalari va element tarkibi» nomli ikkinchi bobida tadqiqot bo‘yicha olingan shaxsiy natijalar muhokamasi keltirilgan.

***Helichrysum maracandicum* o'simligini fitokimyoviy tadqiq qilish**

Dastlabki fitokimyoviy tadqiqotlar natijasiga ko'ra, *Asteraceae* oilasiga mansub *Helichrysum maracandicum* Popov ex Kirp. (*Samarqand o'lmas o'ti*) o'simligining guli va barg qismlari uchuvchan birikmalari xromato-mass spektrometriya usulida qiyosiy tahlil qilindi. Olingan natijalarga asosan o'simlik gullarining efir moyida 52 birikma identifikatsiya qilingan bo'lib, ulardan 12 tasi asiklik birikmalar (12.96%), ularning asosiysi geksen-2-al (6.91%), 7 ta aromatik birikmalar orasida (9.28%) *sis*-izoevgenol (1.94%) ko'p miqdorda ekanligi aniqlandi. O'simlik tarkibida monoterpenlar alohida o'rin egallaydi, efir moyida ularning miqdori 49.12% tashkil qiladi. Seskviterpenlar miqdori monoterpenlarga nisbatan kamroq bo'lib, 20.02% tashkil etdi. Efir moyi tarkibida seskviterpenlar bitsiklik seskviterpenlar bilan ifodalangan bo'lib, ular α -selinen (2.61%), (+)-valensen (4.41%) va *trans*-kariofillendan (6.44%) iborat. Shuningdek, o'simlik gullarining efir moyi tarkibida kam miqdorda furan (0.11%) va furfural (0.30%) kabi geterohalqali birikmalar ham aniqlangan. O'simlik barglarining efir moylari gullarning efir moylaridan farqlanib, umumiy hisobda 57 ta birikma identifikatsiya qilindi. Barglarning efir moylari asosan 17 ta asiklik birikmalarni (22.62%) o'z ichiga oladi. Ular orasida asosiylari 4-metiloktadien-2,7 (3.36) va *sis*-geksen-3-ol-1 (4.82%) birikmalaridir. 9 ta identifikatsiya qilingan aromatik birikmalardan (19.42%) asosiylarini evgenol (5.50%) va 2-karboksibenzaldegid (4.79%) birikmalari tashkil etadi. O'simlik barglarining efir moyi tarkibida monoterpenlar 35.98% ni tashkil etdi. Ular orasida monotsiklik monoterpenlardan α -terpinolen (14.29%), R(+)-limonen (6.57%), bisiklik monoterpenlardan esa dillapiol (6.13%) aniqlandi. Seskviterpenlar nisbatan kam bo'lib (7.14%), ulardan bisiklik seskviterpenlarga tegishli γ -muurolen (2.81 %) asosiy birikma ekanligi aniqlandi. Geteroalqali birikmalardan 7 ta aniqlanib, ularning unumi 2.49% tashkil etdi hamda ularning asosiysi 2(5H)-furanon (1.38%) ekanligi ko'rsatildi. O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida *H. maracandicum* o'simligining gul va barglaridagi uchuvchan birikmalarning sifat va miqdoriy tarkibi farq qilishi aniqlanib, o'simlikning gul qismida yuqori unumga ega bo'lgan sitronellilatsetat (3.235%), (+-)-pulegon (14.33%), α -tuyon (3.42%), (+)-valensen (4.41%) va *trans*-kariofillen (6.44%) birikmalari mavjud bo'lib, o'simlikning barg qismida mazkur birikmalar aniqlanmadi. Bundan tashqari, o'simlik barglarining efir moyi tarkibida gullardagiga nisbatan sifat va miqdoriy jihatdan ko'proq asiklik, aromatik birikmalar bo'lsa, gullarda mono- va seskviterpenlar miqdori ko'p ekanligi aniqlandi. Bu tafovut asiklik va aromatik birikmalarning o'simlik o'sishining dastlabki davrida hosil bo'lishi, keyinchalik ular terpenoid birikmalarga o'tishi bilan izohlanadi, shuningdek bu o'simlikning o'sish joyi va vegetatsiya davri bilan ham bog'liq.

Fitokimyoviy tadqiqotlar natijasida *Helichrysum maracandicum* o'simligining er ustki qismidan birinchi marotaba quyidagi komponentlar individual holda ajratib olindi: 4 ta triterpenoid β -sitosterol (**1**), stigmasterol (**2**), α -spinasterol (**3**) va β -sitosterol-3-*O*- β -*D*-glyukopiranozid (**4**), 13 fenol birikmalari gall (**5**) va dolchin kislotalari (**6**), apigenin (**7**), luteolin (**8**),

kempferol (9), kversetin (10), naringenin (11), kosmosiin (12), izosalipurpozid (13), naringenin-5-*O*- β -*D*-glyukopiranozid (14), apigenin-4'-*O*- β -*D*-glyukopiranozid (15), izokversitrin (16), rutin (17) hamda 1 ta halqali poliol *D*-pinitol (18) birikmalari individual holda ajratib olindi. Ajratib olingan birikmalarning tuzilishi kimyoviy va spektral usullar yordamida isbotlangan bo'lib bu ma'lumotlar dissertatsiyada batafsil bayon etilgan.

Kversetinining sitizin alkaloidi bilan yangi hosilasi sintezi


Tabiiy flavonoidlarning kimyoviy transformatsiyasi ularning farmakologik ta'sir doirasini kengaytirish xususiyatiga ega bo'lib, hozirgi vaqtda tibbiyot, veterinariya va qishloq xo'jaligi uchun yangi dori vositalarini yaratishning istiqbolli yo'nalishi hisoblanadi. Adabiyotlardan ma'lumki, flavonoidlar kuchli antioksidant, gepatoprotektiv, neyrodegenerativ, yallig'lanishga qarshi va boshqa xususiyatlarga ega bo'lib, ular orasida kversetin alohida o'rin tutadi. Kversetin biologik faolligining keng doirasi uni yangi gibridd polifunksional farmakologik faol birikmalar olish maqsadida kimyoviy modifikatsiya uchun asosiy birikmalar guruhiga kiritishga imkon beradi.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, O'zbekiston hududida keng tarqalgan *Helichrysum maracandicum* o'simligida biologik faol terpenoidlar hamda flavonoidlar, shu jumladan, kversetin ko'p (major) miqdorda biosintezlanishi ko'rsatib o'tilgan. Shularni inobatga olgan holda, Mannix reaksiyasi asosida sitizin alkaloidi bilan kversetinining monoalmashgan kon'yugati olindi. Kversetin, sitizin va formalin ekvimolyar miqdorda olinib, izopropil spirti muhitida, xona haroratida 2 soat mobaynida aralashtirildi. Reaksiyon aralashma 12-14 soatga qoldirildi. Cho'kmaga tushgan reaksiya mahsuloti filtrlab olindi, izopropil spirti bilan yuvilib, xona haroratida quritildi. Olingan birikmaning tuzilishi UB, IQ, ^1H va ^{13}C YaMR, mass-spektrometriya natijalari yordamida isbotlandi.

Olingan yangi hosilaning (19) UB spektrida 260, 313 va 379 nm larda uchta yutilish maksimumlari kuzatildi. IQ-spektrida gidroksil guruhlarining intensiv yutilish chiziqlari ($3362\text{-}2930\text{ cm}^{-1}$), kversetin va sitizin fragmentlariga oid karbonil guruhi yutilish chiziqlari 1655 cm^{-1} da keng yoyilgan intensiv holatda namoyon bo'ldi. C=C qo'shbog'lar valent tebranishlari 1623 va 1594 cm^{-1} sohalarda kuzatildi.


Birikmaning DMSO- d_6 +CCl $_4$ da olingan ^1H YaMR spektrida kversetin va sitizin molekulasida protonlariga xos signallar kuzatildi (1-rasm). Spekrning kuchsiz sohasida 12.37 m.u. da gidroksil guruhining (5-OH) proton signali, kversetinining aromatik sohadagi, 6.00 m.u. da (H-6) singlet signal 6.79 m.u. (H-2'), dublet signal, 7.17 m.u. (H-5') va 7.40 m.u. (H-6') larda ikkita dublet-dublet signallarning namoyon bo'lishi hamda sitizin fragmenti proton spektrining kuchsiz soha qismida 6.14 m.u.-da (H-3'') 7.58 m.u. (H-4''), 6.93 m.u. (H-5'') dublet, shuningdek, 3.07 m.d. (H-7'') va 2.46 m.u.-da (H-9'') multiplet signallar kuzatilishi bilan izohlanadi.

(19) birikmaning mass-spektrida (m/z) 505.21136 [M-N]⁺ (C₂₇H₂₄N₂O₈ uchun hisoblangan, 503.35645 g) (3-rasm).



3-rasm. Kversetin-8-sitizin (19) ning mass-spektri

Demak, kversetin flavonoidining sitizin alkaloidi bilan aminometillash reaksiyasi natijasida yangi, **19**-birikma kversetin-8-sitizin yoki 3,5,7,3',4'-pentagidroksiflavon-8-sitizin tuzilishiga ega birikma olindi va tuzilishi spektral ma'lumotlar asosida tasdiqlandi. Quyida olingan yangi birikmaning kimyoviy tuzilish formulasi keltirilgan (4-rasm).



4-rasm. 19-yangi birikma kversetin-8-sitizinning tuzilish formulasi

Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, adabiyot ma'lumotlarida faqatgina digidrokversetin-8-sitizin va digidrokversetin-6-sitizin hosilalarining olinishi qayd etilgan. Kversetin yangi hosilasi ilgari adabiyotlarda keltirilmagan va u kversetin yangi alkaloidli hosilasi sifatida taklif etildi.

O‘zbekiston hududining turli mintaqalarida tarqalgan *Helichrysum maracandicum* o‘simligining makro- mikroelement tarkibi

Adabiyotlarda *Helichrysum maracandicum* o‘simligining element tarkibi bo‘yicha ma’lumotlar uchramaydi. O‘zbekistonning 5 ta mintaqasi - Surxondaryo, Samarqand, Jizzax, Toshkent va Namangan viloyatlarining tog‘li hududlarida keng tarqalgan *H. maracandicum* o‘simligining to‘p gullarini makro-mikroelement tarkibini hududlar kesimida qiyosiy tadqiq qilindi. O‘simlikning element tarkibi Atom emission usulda 44 ta element mavjudligiga tekshirildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra o‘simlik gullarida juda yuqori K, Ca, P, Mg ($n \times 10^3 - 10^4$ mg/kg), yuqori Na, Fe, S, B, Su ($n \times 10^2$ mg/kg), o‘rta Al, Mn, Zn, Si, Ti, Ba, Sr ($n \times 10$ mg/kg), kam Cr, Ni, Sn, Ag, Mo, Pb, Rb (n mg/kg), kamroq Se, Cd, Co, V, Hg, W, Zr, Ga, ($n 10^{-1}$ mg/kg) hamda juda kam Li, As, Bi, Ta, Be, U, Re ($n 10^{-2}$ mg/kg) miqdorlarda elementlar borligi tasdiqlandi. Aniqlangan elementlar orasida makroelementlardan juda ko‘p miqdorda K, Ca, P, Mg, Na va S elementlari borligi ko‘rsatib o‘tilgan. Ularning foiz miqdori 2,4% 0,89%, 0,5% 0,17%, 0,78% va 0,06% larni tashkil qildi.

Kaltsiyning eng ko‘p miqdori Jizzax viloyatida o‘sadigan *N. maracandicum* o‘simligida bo‘lib, 0,4% dan 0,9% gacha bo‘lgan miqdorni tashkil qilishi aniqlandi. Olingan natijalardan ko‘rinadiki, turli hududlardan yig‘ilgan o‘simliklar tarkibidagi makro- va mikroelementlar miqdorlari orasida deyarli katta tafovut kuzatilmaydi. Lekin, boshqa hududlardan, masalan Surxondaryo va Namangan viloyatlaridan terilgan namunalarda makro- va mikroelementlar miqdori birmuncha ko‘pligi aniqlandi. Shu bilan birgalikda aynan shu hududlardagi o‘simliklarda zaharli elementlar miqdori boshqa hududlarga nisbatan ko‘pligini ko‘rishimiz mumkin, ammo O‘zbekiston Respublikasi Oziq-ovqat mahsuloti xavfsizligi gigienik normativlari 10.5 bandida o‘simlik ekstraktlari asosidagi biologik faol qo‘shimchalar tarkibidagi 4 ta Pb, Cd, Hg va As kabi og‘ir metallar ionlari miqdorlari tartibga solinib, ularning ruxsat etilgan miqdori tegishlicha Pb-5,0; Cd-1,0; Hg-1,0 va As-3,0 mg/kg dan oshmasligi belgilab qo‘yilgan. Olingan natijalar o‘rganilgan o‘simlikdagi zaharli og‘ir metallar ionlarining miqdori O‘zbekiston Respublikasi Oziq - ovqat mahsulotlari xavfsizligi normativlaridagi ruxsat etilgan miqdoridan yuqori emasligi aniqlandi.

Olingan ma’lumotlar Respublikamizning tog‘li hududlarida o‘sadigan *H. maracandicum* o‘simligini biologik faol qo‘shimchalar sifatida tibbiyot va xalq tabobatida qo‘llash mumkin ekanligini ko‘rsatadi.

***Helichrysum maracandicum* gullaridan flavonoidlar ekstraksiyasi jarayonining tadqiqoti**

Helichrysum maracandicum gullaridan flavonoidlar yig‘indisini ekstraksiya qilish jarayoni tadqiqot ishlari olib borildi. Tadqiqot natijalari asosida ekstraksiyaning quyidagi sharoitlari aniqlandi: ekstragent 70% etil spirti, xomashyoning o‘lchami 3-5 mm kattalikda va jarayon 40–50°C

haroratda olib borildi. Samarali ekstragent tanlash uchun bir qator erituvchilarning turli foizlarining unumga nisbati o'rganildi. Havoda quritilgan xomashyo 500 g dan ekstraktorlarga solindi va xona haroratida turli kontsentratsiyali (90, 80, 70, 60 %) etil spirti bilan har 6 soatda (5 marotaba) ekstraksiya qilindi. Olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. Turli kontsentratsiyadagi etil spirtining flavonoidlar ekstraksiyasi unumiga ta'siri

Ekstragent etanol, %	Xomashyo massasiga nisbatan individual birikmalarning miqdori, (%)			Xomashyo tarkibiga nisbatan ekstraktdagi fenol birikmalarning miqdori, (%)
	Kosmosiin*	Izosalipurpozid*	Salipurpozid*	
70	0,92	1,70	1,51	90,98
60	0,77	1,52	1,37	75,30
50	0,55	1,55	1,32	67,76
40	0,54	1,55	1,61	86,96

* - YUSSX ma'lumotlari bo'yicha

Ekstraksiya natijalariga ko'ra, tarkibida fenol birikmalar yuqori bo'lgan ekstrakt olish uchun ekstragent sifatida 70% li etil spirtidan foydalanish muvofiqligi aniqlandi.

Keyinchalik, ekstraksiya jarayonida xomashyoning maydalanganlik darajasini flavanoidlar yig'indisi unumiga ta'siri o'rganildi. Maydalangan xomashyoning o'lchami 1.0 mm dan kam bo'lgan; 1-3; 3-5; 5-7 mm va maydalanmagan xomashyoga nisbatan flavanoidlar yig'indisi unumi qiymatlari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval. Xomashyoning maydalanganlik darajasining flavanoidlar ekstraksiyasi unumiga ta'siri

Zarrachalar o'lchami, mm	Ajratilgan fenol birikmalarning xomashyoga nisbatan miqdori, %
1 dan kam	90,84
1-3	90,84
3-5	90,86
5-7	87,79
Maydalanmagan xomashyo	80,14

O'simlik moddalarini ekstraksiya qilishda harorat ko'pincha ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Harorat ortishi bilan diffuziya jarayoni tezlashadi. Shu maqsadda 20, 30, 40, 50 °C da ekstraktiv moddalar va fenol birikmalar yig'indisi unumiga harorat ta'siri o'rganildi. Termostatga sig'imi 2.0 l bo'lgan idish o'rnatilib, unga 100 g xomashyo solindi va 1,5 l 70% etil spirti bilan to'ldirildi. Ekstraksiya jarayonini tezlashtirish uchun massa aylanish tezligi 60 ayl/min aralashtirgich bilan aralashtirildi, 6 soatdan so'ng jarayon to'xtatilib,

ekstrakt shrotdan ajratildi, vakuumli bug‘latgichda haydaldi va kontsentrlangan ekstrakt tahlil qilindi. Har xil haroratda ekstraksiya olib borilganda, haroratning ortishi ekstraksiya unumining ortishiga, ammo mahsulot sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. O‘tkazilgan tadqiqotlar 40 va 50 °C lardagi natijalar bir biriga juda yaqin ekanligini ko‘rsatdi, ammo nisbatan yuqori harorat bir qancha kuchsiz bog‘larni uzib yuborishini inobatga olgan holda, o‘simlikni 50 °C haroratda ekstraksiya qilish maqbul ekanligini ko‘rsatdi. Natijalar 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval. Ekstraksiya jarayoniga haroratning ta’siri

Harorat, °S	Xomashyo massasiga nisbatan individual birikmalarning miqdori, %			Ajratilgan fenol birikmalarning xom ashyoga nisbatan miqdori, %
	Kosmosiin	Izosalipurpozid	Salipurpozid	
20-30	0,55	1,30	1,21	84,72
30-40	0,57	1,52	1,37	87,86
40-50	0,94	1,75	1,62	90,76
50-60	0,95	1,75	1,69	90,96

Tajribaning matematik modellashtirilishi Boks-Uilson usuli bo‘yicha hisoblandi va xomashyodan unumi 90% dan kam bo‘lmagan flavonoidlar yig‘indisini ajratib olishni ta’minlaydigan ekstraksiya sharoitlari aniqlandi. Olingan va tozalangan ekstrakt tarkibidagi kosmosiin, izosalipurpozid va salipurpozid flavonoidlarning sifat va miqdoriy tarkibi yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi (YUSSX) usuli bilan aniqlandi.

***Helichrysum nuratavicum* va *Helichrysum mussae* o‘simliklarining uchuvchan birikmalarini tadqiq qilish**

Tadqiqot ishlarini davomida *Helichrysum nuratavicum* va *Helichrysum mussae* o‘simliklarining vegetativ organlaridagi efir moylarning kimyoviy tarkibi o‘rganildi. *Helichrysum maracandicum* o‘simligining efir moylari analizi kabi mazkur tur o‘simliklarining ham uchuvchan komponentlari xromato-mass spektrometriya usulida qiyosiy tahlil qilindi.

Helichrysum nuratavicum o‘simligining efir moylari gidrodistillash usuli bilan ajratilib, ularning kimyoviy tarkibi xromato-mass spektrometriya usulida tadqiq etildi. *H.nuratavicum* o‘simligi gul va barglaridan identifikatsiya qilingan birikmalarning unumi mos ravishda 0,07% va 0,05% ga teng bo‘ldi. O‘simlik gullarining efir moyi tarkibida 45 ta birikma identifikatsiya qilindi va asosiy komponent sifatida α -terpinolen (5.10%), (+)-pulegon (8.26%), *trans*- β -kariofillen (24.21%), (+)-aromadendren (19.89%) kabi mono- hamda seskviterpenlar tashkil etishligi, barglarining efir moyi tarkibida esa 79 ta birikma identifikatsiya qilingan bo‘lib, asosan kapril kislotasi (4.22%), butiloktil ftalat (3.47%), *trans*- β -kariofillen (11.25%), γ -muurolen (5.11%), (+)-aromadendren (25.66%), alloaromadendren (6,51%) major birikmalar

ekanligi aniqlandi. O'tkazilgan tadqiqotlarni tahlil qilish natijasida *H.nuratavicum* o'simligining gullari va barglari tarkibidagi uchuvchan birikmalarning sifat va miqdoriy jihatidan farqlari aniqlandi. Masalan, o'simlik barglarining efir moyida uglevodorodlar (1.38%), spirtlar (0.58%), aldegidlar va ketonlar (1.27%), monoterpenlar (3.51%), seskviterpenlar (63.25%) tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkichlar o'simlik gullarining efir moyiga nisbatan quyidagicha farq qildi: spirtlar (0.67%), aldegid va ketonlar (3.4%), monoterpenlar (22.48%), seskviterpenlar (56.82%). Ko'rinib turibdiki, o'simlik gullari efir moyi tarkibi o'simlik barglari efir moyi tarkibidan terpenlar miqdorining ko'pligi va uglevodorodlar miqdorining juda kamligi bilan farq qildi.

Helichrysum mussae barglarining geksanli ekstraktidan umumiy 33 ta birikma identifikatsiya qilingan bo'lib, asosiy birikma sifatida β -pinen, γ -terpinen, α -kopaen, izokariofillen, (-)- β -selinen, β -kadinen, β -asaron kabi biologik faol birikmalari identifikatsiya qilindi. Shuningdek, *H. mussae* barglarining gidrodistillash usuli bilan olingan uchuvchan birikmalarning asosiy birikmalari – dokozaan (9.48%), palmitin va palmitolein kislotalari (6.50% va 2.33% mos ravishda), nonakozaan (9.28%), 1-xloroheptakozaan (11.71%) va boshqalar asosiy birikma sifatida qayd etildi.

Olingan natijalarga ko'ra tadqiq etilayotgan ob'ektning gul savatchalarining geksan ekstrakti tarkibida 95 ta birikma aniqlangan bo'lib, ular orasida 1,8-sineol (5.08%), *trans*-geksen-2-al (2.26%), α -kamfolenal (2.08%), linalool (5.03%), (+-)-pulegon (7.66%), (-)-*trans*-pinokarveol (2.30%), (-)-borneol (3.70%), (-)- β -fenzol (3.60%) va evgenol (1.63%) kabi birikmalar miqdor jihatidan ustunlik qilishi aniqlandi. O'simlik gullarining gidrodistillash usulida olingan efir moylari tarkibida esa umumiy hisobda 77 birikma identifikatsiya qilingan bo'lib, ular orasida 1,8-tsineol (1.10%), γ -terpinen (1.02%), furfural (4.03%), linalool (1.14%), β -kariofillen (2.51%), (+-)-pulegon (2.29%), α -terpineol (2.48%), (+)- δ -kadinen (1.66%), kapril kislotasi (14.96%), kaprin kislotasi (6.64%), laurin kislotasi (3.10%) va palmitin kislotasi (6.41%) dominantlik qilishi ko'rsatildi.

O'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra *Helichrysum nuratavicum* va *Helichrysum mussae* o'simliklarining gul va barglari uchuvchan birikmalari xromato-mass-spektr tahlili usuli yordamida birinchi marotaba tadqiq etildi.

Individual va yig'indi holdagi moddalar hamda modifikatsiyalangan birikmaning biologik faolliklari

Mazkur bo'limda individual va yig'indi holdagi, shuningdek kversetinning sitizin bilan olingan hosilasining biologik faolliklari bo'yicha natijalar keltirilgan. *Helichrysum maracandicum* o'simligidan ajratib olingan flavonoidlar yig'indisining gepatoprotektor va eksperimental toksik gepatitda kalamush qon zardobidagi alaninaminotransferaza, aspartataminotransferaza faolliklari va ishqoriy fosfataza ko'rsatkichlarining tahlil natijalari keltirilgan bo'lib *S-Helmer 2* flavonoidlar yig'indisidan tashkil topgan ekstraktining

gepatoprotektorlik faolligi tibbiyotda foydalanilib kelinayotgan “Silimarin” dori vositasiga yaqin ekanligi ko‘rsatildi.

Helichrysum maracandicum, *H. nuratavicum* va *H. mussae* o‘simliklarining uchuvchan va individual birikmalarining mikroba va zamburug‘larga qarshi faolligi bo‘yicha ham tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, olingan efir moylari tadqiq qilingan barcha bakteriya shtammlariga nisbatan sezilarli antibakterial faollikni namoyon qilishligi aniqlandi.

Bundan tashqari, sintez qilingan kversetin-8-sitizin birikmasining mikroba va zamburug‘larga qarshi faolligi ham o‘rganilgan bo‘lib, *in vitro* skrining tadqiqotlari xalqaro standartlariga muvofiq (CLSI document M02. 13th Edition. USA, 2018; DIN 222, Medizinische Mikrobiologie und Immunologie. Beuth-Verlag, Berlin (2004); GF XI) modifikatsiyalangan “agardagi disk-diffuziya” usuli yordamida amalga oshirildi.

Dissertatsiyaning «*Helichrysum maracandicum*, *H. nuratavicum* va *H. mussae* o‘simliklarining terpenoidlari, fenol birikmalari hamda element tarkibini tadqiq etish va identifikatsiya qilish» deb nomlangan uchinchi bobida ajratib olish usullari, uchuvchan komponentlarning, individual terpenoid va fenol birikmalari identifikatsiyasi va ularning fizik-kimyoviy xossalari, o‘simliklarning element tarkibini aniqlash metodikalari, shuningdek spektral ma’lumotlari yoritilgan.

Dissertatsiyani shakllantirishda adabiyotlar ro‘yhati qismida 180 ta foydalanilgan ilmiy manbalar keltirilgan.

XULOSALAR

1. Ilk bor *Asteraceae* oilasiga mansub *Helichrysum maracandicum*, *H. nuratavicum* va *H. mussae* uch turdagi o‘simliklarining fitokimyoviy tahlili amalga oshirildi.

2. Birinchi marotaba *Helichrysum maracandicum* o‘simligidan 2 ta fenolkarbon kislotalari, 4 ta triterpenoid, 11 ta flavonoid birikmalari va 1 ta siklik polioliol individual holda ajratib olindi. Ajratib olingan birikmalarning tuzilishlari spektral usullar yordamida isbotlandi.

3. *Helichrysum maracandicum* va *Helichrysum mussae* o‘simliklarining makro va mikro element tarkibi tadqiq qilindi hamda ular tarkibiagi zaharli og‘ir metall ionlari miqdori O‘zbekiston Respublikasi Oziq-ovqat mahsuloti xavfsizligi gigienik normativlaridagi ruxsat etilgan darajadan past ekanligi ko‘rsatildi. Bundan tashqari barcha ob’ektlardan 150 ga yaqin uchuvchan birikmalar identifikatsiya qilinib, ularning asosiy major birikmalarini R(+)-limonen, α -terpinolen, *trans*-kariofillen, (+)-aromadendren, (+)-pulegon, 1,8-sineol va linalool kabi mono- hamda seskviterpenlar tashkil etishi ko‘rsatildi.

4. Birinchi marotaba Mannix reaksiyasi (aminometillash) usulida kversetin bilan sitizin alkaloidining yangi hosilasi olindi va uning tuzilishi hamda biologik faolligi isbotlandi.

5. *Helichrysum maracandicum* o‘simligi gullaridan flavonoidlarni ekstraksiya qilishning yangi maqbul usuli ishlab chiqildi. Bunga ko‘ra mazkur

o‘simlik major flavonoidlarni ajratib olish uchun eng maqbul ekstraksiya usuli sifatida 3-5 mm darajada maydalangan o‘simlik namunalarini 70 % li etil spirtida 40 °C haroratda olib borish taklif qilindi.

6. Biologik tadqiqotlar asosida *Helichrysum maracandicum* o‘simligining gullaridan ajratib olingan individual hamda yig‘indi holidagi birikmalar yuqori antioksidant va gepatoprotektor, shuningdek mikroob va zamburug‘larga qarshi faolliklarni namoyon qilishi aniqlandi hamda *S-Helmer* 2 flavonoidlar yig‘indisidan tashkil topgan ekstraktining gepatoprotektorlik faolligi tibbiyotda foydalanilib kelinayotgan “Silimarin” dori vositasiga yaqin ekanligi ko‘rsatildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2019.К.05.01 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ФЕРГАНСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА

САРАБЕКОВ АСАДБЕК ТАЖИКУЛОВИЧ

**ХИМИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ РАСТЕНИЙ *HELICHRYSUM
MARACANDICUM*, *HELICHRYSUM NURATAVICUM* И *HELICHRYSUM
MUSSAE***

02.00.10 – Биоорганическая химия

**АВТОРЕФЕРАТ диссертации доктора философии (PhD)
по ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Фергана - 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2023.2.PhD/K400.

Докторская диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета по адресу (fdu.uz) и на Информационно-образовательном портале «Ziyounet» (www.ziyounet.uz).

Научный руководитель:

Маулянов Салихжан Алимжанович
кандидат химических наук, доцент

Официальные оппоненты:

Арипова Салимахон
доктор химических наук, профессор

Сиддиков Гопуржон Усманович
доктор философии по химическим наукам, доцент

Ведущая организация:

Институт биоорганической химии


Защита диссертации состоится «06» июн 2024 г. в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.K.05.01 по присуждению ученых степеней при Ферганском государственном университете (адрес: 150100, г. Фергана, ул. Мураббийлар, дом 19. Тел.: (99873) 244-44-02; факс: (99873) 244-44-93).


С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ферганского государственного университета (зарегистрирована за № 350) (по адресу: 150100, г. Фергана, ул. Мураббийлар, дом 19. Тел. (99873) 244-44-02, факс (99873) 244-44-93; e-mail: fardu_info@umail.uz)


Автореферат диссертации разослан «22» июн 2024 года.

(реестр протокола рассылки № _____ от « » _____ 2024 год.)




В.У. Хужаев
председатель научного совета по
присуждению учёных степеней, д.х.н., профессор


Ш.Ш. Тургунбаев
учёный секретарь научного совета
по присуждению учёных степеней,
доктор философии по химическим наукам (PhD)


Ш.В. Абдуллаев
председатель научного семинара
при научном совете по присуждению
учёных степеней, д.х.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире большое внимание уделяется изучению растительного сырья с новыми биологически активными веществами. Лекарственные средства, созданные на основе биологически активных соединений, выделенных из природного сырья, отличаются от синтетических лекарственных средств свойствами, избирательным действием и экологической чистотой, и обладают более эффективным действием. Создание на основе природных терпеноидов и фенольных соединений лекарственных средств и внедрение их в практику является очень актуальным. Прежде всего, это связано с тем, что лекарственные растения являются основным источником получения некоторых лекарственных средств и занимают важное место в фармацевтической промышленности. Поэтому особое значение приобретают химические исследования растительного сырья, содержащего биологически активные соединения (преимущественно терпеноиды и фенольные соединения), и создание на их основе лекарственных средств для медицинской практики, ветеринарии и сельского хозяйства.

В последние годы в мировом масштабе все больше внимания уделяется выделению терпеноидов и фенольных соединений из растений семейства *Asteraceae*, биосинтезирующих биологически активные соединения. В частности, растительные флавоноиды обладают желчегонным, холеретическим, противовоспалительным, антибактериальным, противоспазматическим, ранозаживляющим и антиоксидантным действием, а лекарственные средства на их основе используются в медицинской практике для лечения различных заболеваний. В связи с этим созданию желчегонного препарата «Фламин» на основе сбора флавоноидов, полученных из цветков *Helichrysum arenarium*, выделению отдельных биологически активных соединений из растений, содержащих биологически активные терпеноидные и фенольные соединения, определению их химической структуры и биологической активности, а также созданию различных лекарственных препаратов на их основе уделяется особое внимание.

В нашей республике приняты широкие меры и достигнуты определенные результаты по созданию импортозамещающих и экспортоориентированных лекарственных средств на основе местных лекарственных растений и обеспечению населения качественными лекарственными средствами

Согласно Указу Президента Республики Узбекистан от 21 января 2022 года УП-55 «О дополнительных мерах по ускоренному развитию фармацевтической промышленности Республики Узбекистан» определены задачи, направленные на совершенствование методов получения биологически активных соединений, «организацию научно-исследовательских разработок и внесению предложений и локализации производства по

дальнейшему применению инновационных технологий в производстве лекарственных средств, изделий медицинского назначения и медицинской техники». В связи с этим выделение биологически активных соединений из растений *Helichrysum maracandicum*, *Helichrysum nuratavicum* и *Helichrysum mussae*, широко распространенных на территории Узбекистана, и создание импортозамещающих лекарственных средств на их основе имеет большое значение.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит для реализации задач, поставленных в постановлениях Президента ПП-3532 от 14 февраля 2018 года «О дополнительных мерах по ускоренному развитию фармацевтической отрасли», ПП-4670 от 10 апреля 2020 года «О мерах по охране, культурному выращиванию, переработке дикорастущих лекарственных растений и рациональному использованию имеющихся ресурсов», а также других нормативных правовых актах, связанных с этой деятельностью.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики. Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и технологий Республики VI. «Медицина и фармакология» и VII. «Химические технологии и нанотехнологии».

Степень изученности проблемы. Фитохимические исследования растения вида *Helichrysum Mill.* были изучены ведущими государственными мировыми специалистами среди которых F.Bohlmann, W.R.Abraham, W.S.Sheldrick, C.Zdenot, C.Zdero, E.Hoffmann, P.K.Mahanta, D.A.Viegas, A.P.De-Oliveira, L.Salgueiro, J.M.De-Oliveira, R.P.De-Oliveira, L.N.Misra, J.L.Rios, M.C.Recio, E.M.Cybulski и другие, учеными стран СНГ - А.В.Куркиным, В.М.Рыжовым, О.М.Шевчук, С.П.Лукашук, С.А.Фесковым, С.Л.Аджихметовой, Н.М.Червонной, И.А.Федотоой, А.С.Баймухаметовой, Л.Т.Сухенко, А.В.Великородовым М.А.Егоровым, А.М.Алмагамбетовым, Б.С.Темиргазиевым, И.В.Заварзиным, В.В.Качала, П.К.Кудабаевой, Б.И.Туленовым, С.М.Адекеновым, Ю.С.Тараховским, Б.С.Абдрасиловым, Е.Н.Музафаровым, Н.Ю.Адамсевич, Е.В.Фесковой, В.С.Болтовским и другими.

